



O‘QUVCHILARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MUOMMOLARI

Nizomxonov S.E.

Toshkent amaliy fanlar universiteti katta o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: kompetensiya, axborot kompetentlik, kasbiy kompetentlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik texnologiya, kasb sohalarga intergasiyalash, pedagogik tadqiqotlar, raqamli texnologiyalar, axborot ta’lim muhiti.

Ключевые слова: компетентность, информационная компетентность, профессиональная компетентность, информационно-коммуникационные технологии, педагогические технологии, интеграция в профессиональные области, педагогические исследования, цифровые технологии, информационная образовательная среда.

Key words: competence, information competence, professional competence, information and communication technologies, pedagogical technologies, integration into professional fields, pedagogical research, digital technologies, information educational environment.

Asrimizning dastlabki yillarida axborot inson mehnatining asosiy predmetiga aylanadi: agar avvallari asosan moddiy va energiya jarayonlari o‘zgarib turadigan bo‘lsa va axborotlar yordamchi, xizmat qiluvchi rol o‘ynagan bo‘lsa, bugungi davrga kelib axborotlar bilan ishlash maydoni ancha kengaygan. Dunyoning kuchli va shiddatli axborot oqimlari bilan to‘yinganligi nafaqat uni sezilarli darajada o‘zgartiradi, balki axborot olamining mutlaqo yangi sharoitida millionlab odamlarni hayot va faoliyatga tayyorlash bilan bog‘liq yangi global muammoning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda.

Bunda so‘z nafaqat insonlarning bilim darajasini oshirish, balki ularga nafaqat ma’lumotlarni idrok etish, saqlash va ko‘paytirish, balki yangi ma’lumotlarni ishlab chiqarish, axborot oqimlarini boshqarish va ularni samarali qayta ishlash imkonini beradigan axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasini rivojlantirish haqida bormoqda.

Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kelajak mustaqil hayotga tayyorlash mazmuni murakkab va ko‘p komponentli tuzilishga ega ekanligi, o‘rganilayotgan ob’ektlar, hodisalar va jarayonlarning xilma-xilligi bilan ajralib turishi sababli, nazariy bilimlarning katta hajmini chuqur o‘zlashtirish bilan bir qatorda



ularning kasbiy kompetensiyalarini va shu jumladan axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishni ta'minlash muhimdir.

Albatta "axborot kompetentlik" tushunchasi hozirda keng qo'llanilmoqda. Bu borada ilmiy tadqiqotchilar, jumladan, xorijiy olimlar O.B.Zaytseva, L.K.Raitskaya, A.L.Semenov, P.V.Sysoev, S.V.Trishina va boshqalar ta'kidlashlaricha kishining axborot kompetentligi deganda kasbiy muammolarni hal qilishga qaratilgan axborot texnologiyalari sohasidagi bilim, ko'nikma, malaka va faoliyat usullari tushuniladi [1,14; 2,142; 3,8; 4,5]. Ular o'z tadqiqotlarida ilmiy va uslubiy adabiyotlarda mavjud bo'lgan xususiyatlarni tahlil qilish asosida axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv va kasbiy faoliyatda samarali qaror qabul qilishga qaratilgan o'qitish natijasida olingan aniq bilim, malaka, ko'nikma va faoliyat usullari sifatida aniqlash mumkinligini ta'kidlaganlar.

Hozirgi kunda Respublikamizda ham umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda interfaol metodlar asosida kasbiy sohalarga integratsiyalash orqali o'quvchilarning axborot kompetentligini shakllantirish usul va vositalarini keng joriy etish muhim zarurat bo'lib, yuqori sinf o'quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish muammosi va unga pedagogic yechim topish dolzarb bo'lib bormoqda. Chunki mamlakatning barcha ta'lim muassasalari oldida bitiruvchi yuqori sinf o'quvchilarni axborot kompetentligini rivojlantirish evaziga kasb sohalarga yo'naltirish vazifalari turganligi hech kimga sir emas.

Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlari joriy etish; 10-11-sinf o'quvchilari uchun ixtisoslashtirilgan, shu jumladan ijtimoiylashuvga, iqtidor va kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan o'quvchilarning kasbiy o'qitish imkoniyatlarini kengaytirgan holda ta'lim berishni rivojlantirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kelajak kasblar uchun zarur bo'ladigan malakali bitiruvchilarni tayyorlashda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rgangan holda umumta'lim muassasalarida informatika fanini o'qitish dasturini qayta ko'rib chiqishga yo'naltirilgan "IT-Nation" dasturini joriy etish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Shunday qilib, jamiyat hayotida axborotning ortib borayotgan roli ikki jihatdan ya'ni, miqdoriy jihati – axborot hajmining ortib borishi va sifat jihati esa – axborotni insoniyat taraqqiyoti uchun eng muhim resursga aylantirishda namoyon bo'layotganligi bilan izohlash mumkin.



Bundan tashqari, ikkala mulohaza ham ta'lim tizimining modeliga teng darajada ta'sir qiladi, shuning uchun ta'lim oluvchilarni kasbiy sohalarga integrasiyalashni optimallashtirishni hisobga olish bilan jamiyatning barcha a'zolarining axborot kompetentligini rivojlantirish muammosi dolzarb bo'lib qoladi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasining mazmuni va mohiyatini ochib berish vazifasini qo'ygan holda, biz tabiiy ravishda ta'lim tizimidagi "Kasblarga yo'naltirishdagi axborotlar bilan kompetensiyasi", "Kelajak kasblarni tanlashda axborot kompetentligini rivojlantirish", "Kasbiy sohalarga integrasiyalash maqsadlaridagi axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik muommolari" kabi tushunchalarni ilmiy tahlil qilish bilan mavzuda adabiyotlarni o'rganishni va sanab o'tilgan muammolarni aniqlashni maqsad qilib oldik.

Ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, kompetentlik asosida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, aniq-tabiiy fanlarni, shu jumladan "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning metodik asoslarini takomillashtirish, axborot ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarish, o'quvchilarda axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish bo'yicha ko'pgina masalalarni tadqiq etgan respublikamiz pedagog olimlari A.Abduqodirov, Y.Asadov, U.Begimqulov, F.Zakirova, M.Matnazarova, M.Ergashov, N.Muslimov, N.I.Taylakov, G.Ernazarova, M.Mamarajabov kabilarning, umumta'lim fanlari bo'yicha tayanch va fanga oid kompetensiyalarni loyihalash, o'quvchilar kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishga oid fikrlar U.Inoyatov, D.M.Mamatqulov, J.Tolipova, N.Turdiyev, J.Usarov, A.Raximov, B.Xodjayev, O.Qo'ysinov va boshqvalarning ilmiy tadqiqotishlarida o'z aksini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida o'quvchilarda axborot kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari, tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, o'quvchilarda axborot kompetentligini rivojlantirishning didaktik asoslari V.I.Baydenko, E.Zeyer, I.Zimnyaya, N.Manko, A.Markova, YE.Nikiforova, I.Frumin, G.Xamatgaleyeva, A.V.Xutorskiy, E.Sharipova kabilarning tadqiqotlarida kuzatish mumkin.

Shu bilan bir qatorda A.T.Kurbanovanning "Talabalarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirish" nomli ilmiy tadqiqot ishlarida talabalarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, tuzilmasi, komponentlari, omillari, mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlash, jarayon modeli, pedagogik texnologiyasi, dasturiy hamda didaktik ta'minotini ishlab chiqish zarurati haqida o'z fikrlarini bayon qilgan [6; 6-b].

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar



strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmonida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan.

Bu borada bo'lajak bitiruvchi o'quvchi yoshlarni ta'lim jarayonlarida kasb sohalarga intergasiyalash orqali yuqori darajaga erishish faqat nazariy bilimlar sohasida fundamentallikni saqlab qolish va kasbiy amaliyotga yo'naltirilgan holda erishish mumkin bo'ladi.

Maktab bitiruvchi o'quvchilarni va yoshlarni axborot texnologiyalaridan samarali foydalangan holda kasbiy sohalarni mustaqil belgilay olishlariga o'rgatish kerak.

Bo'lajak mutaxassis kadrlarni axborot kompetentligini shakllantirish bilan bog'liq muammolarni o'rganishda ta'lim tizimidagi zamonaviy texnologiyalarga asoslangan pedagogic tadqiqotlardan ma'lumki, axborotlar bilan ishlashga layoqatli yoshlarni shakllantirishda amaliy ko'nikmalarga va bilimlarni yangi pedagogik shart – sharoit va vaziyatlarda qo'llash qobiliyatiga yo'naltirilgan ta'lim alohida rol o'ynaydi.

Sh.A.Urazmetova o'zining "Raqamli resurslarni modellashtirish asosida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish" nomli ilmiy tadqiqot ishlarida talabalarning axborot kompetentligi kasbiy va pedagogik faoliyatda samarali qarorlar qabul qilish, raqamli texnologiyalarini o'zlashtirish asosida ishlab chiqilgan model, mezon va ko'rsatkichlar talabalar o'z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish haqida izlanishlar olib borgan [7; 9].

Ta'lim amaliyotiga yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish har qanday fan faoliyatining axborot muhitini yangilashga olib keladi, bu esa ta'lim muassasalarida o'qitishga bo'lgan maqsad va mazmunini, uning shakllari va usullarini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

O'quv jarayonlarida fanlarini o'qitishning an'anaviy usullari bilan bir qatorda yangi axborot texnologiyalaridan tobora ko'proq foydalanilmoqda, bu esa materialni taqdim etish uslubini o'zgartirishga yordam beradi. Ta'lim oluvchilarning axborot kompetentsiyasini rivojlantirish vositasi sifatida kompyuter texnologiyalarining roli ortib borayotganligi, shuningdek, adabiyotlarda o'rganilayotgan masalaning asosiy tushunchalari yetarli darajada rivojlanmaganligi nuqtai nazaridan, mulohazalarni tahliliy ko'rib chiqish zarur.

Buning uchun tahliliy mulohazalar yuritishda bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari turli fanlar bo'yicha, shu jumladan ta'lim tizimida o'qitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalariga qaratilgan olimlarning yondashuvlariga e'tiborimizni qaratamiz.



Masalan, Yangi axborot texnologiyalari yordamida kelajakda iqtisodchilarning kasbiy mahoratini shakllantirish [8]; Kelajakda matematika o'qituvchisining axborot-texnologik kompetentsiyasini shakllantirish jarayonida uzluksizlik prinsipini amalga oshirish [9]; Kompyuter texnologiyalari sohasida talabalarning axborot kompetentsiyasini shakllantirish [10]; Bo'lajak o'qituvchining axborot-kommunikatsiya kompetentsiyasini shakllantirish [11]; Ta'lim sohasida talabaning axborot kompetentsiyasini rivojlantirish [12]; Universitet talabalarining axborot kompetentsiyasini shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning roli [13]. Shunday ekan, ta'limda o'quvchilarning axborot kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirishga bag'ishlangan asarlarni o'rganish zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida kasbiy sohalar integratsiyasiga alohida qiziqish uyg'otadi. Shu kabi dissertatsiya ishlari doirasida innovatsion texnologiyalar yordamida yoshlarni zaruriy mutaxassislikka yo'naltirish ularning axborot kompetentsiyasini shakllantirish masalalari bilan bog'liq fikrlarni o'rganishga bag'ishlangan.

Deyarli barcha tadqiqotchilar o'quv jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, jumladan, axborot kompetentsiyasini shakllantirish uchun yuqori samarali degan xulosaga kelishadi. Tadqiqotchilarning yozishicha, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish yanada samarali ta'lim modelini shakllantirishga yordam beradi, o'quv materialini xayoliy idrok etish orqali chuqur eslab qolishga yordam beradi, uning hissiy ta'sirini kuchaytiradi. Bu multimedia taqdimotlari yoki o'quv dasturlari shaklida taqdim etilgan diagrammalar, o'quv rasmlari, video va audio sharhlardan foydalanish orqali sodir bo'ladi.

MDH olimlaridan A.N.Zavyalovning ta'kidlashicha, axborotning qiymati moddiy resurslar bilan bir xil darajada bo'lgan, axborotni qayta ishlash va saqlash faqat kompyuter texnologiyalari yordamida mumkin bo'lgan zamonaviy jamiyatda soha mutaxassislarini tayyorlash sifatiga talablar kuchaymoqda. Ya'ni zamonaviy ta'lim muassasalarning bo'lajak bitiruvchisining axborot kompetentsiyasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak [10,3].

Shunday qilib, zamonaviy kasbiy ta'limda faol foydalaniladigan yangi axborot texnologiyalari endi "g'ayri tabiiy" narsa emas. Ta'lim muassasalari ma'muriyati kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini nazorat qiladi; o'qituvchilar darslarni tayyorlash va o'tkazishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishlari; o'quvchilar o'quv faoliyatida, darslarga tayyorgarlik ko'rishda va hokazolarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanadilar.

Olimlar ta'limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning axborot kompetentsligini shakllantirishga yordam beradigan afzalliklarni ta'kidladilar.



Bugungi kunda kompyuter texnologiyalarini rivojlantirish sohasida paydo bo'la boshlagan ba'zi tendentsiyalarni kuzatish mumkin. Bu, birinchi navbatda, "o'quvchi-vositachi-o'qituvchi" tizimi bo'yicha qurilgan "axborot ta'lim muhiti" va "virtual ta'lim makonlari"ning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, bu yerda zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari o'z vazifasini bajaradi. O'quv ma'lumotlarini tashkil etishning yangi shakllari paydo bo'lib, ular birinchi navbatda o'quv materialining chiziqli bo'lmagan tuzilishi bilan ajralib turadi, bu esa o'z navbatida o'quvchiga "Individual kasbiy ta'lim yo'lini" tanlash imkonini beradi.

Axborot kompetentsligini shakllantirishda kompyuter texnologiyalarining o'rni bo'yicha maxsus adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimini rivojlanish istiqbollari ko'p jihatdan belgilaydigan asosiy ijtimoiy institut sifatida normal mavjud bo'lishi va samarali rivojlanishi, zamonaviy bo'lib qolishi mumkin. Bilimlar industriyasi jamiyatning yetakchi qadriyatlarini sifatida, pedagogik jihatdan har bir ta'lim muassasasi axborot-texnologik muhitining muhim tarkibiy qismi, ularning ta'lim jarayonining barcha turlari va shakllariga tizimli integratsiyalashuvi bo'yicha doimiy yangilanadigan axborot texnologiyalarini kasbiy sohalarda yo'naltirishi zarurligini anglatadi.

Bu holat zamonaviy o'quv jarayonini kompyuter texnologiyalari bilan boyitish bilan bog'liq holda o'qitishning yangi imkoniyatlarini ilmiy-pedagogik tushunish zarurligini dolzarblashtiradi.

Maktab bitiruvchi o'quvchilarni va yoshlarni o'quv dasturining har bir faniga tayyorlash jarayonida hal qilinadigan didaktik vazifalar xilma-xil va chuqur o'ziga xosdir, kasbiy nazariy va amaliy yo'nalishga ega, yaxlitlik va to'liqlik bilan ajralib turadi. Bularning barchasi ularning axborot kompetentsiyasini shakllantirish uchun zamonaviy pedagogic ta'limda fanining yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim muassasasining axborot resurslaridan har tomonlama foydalanishni talab qiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. – "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2017 y., 6-son, 70-modda.
2. Зайцева, О.Б. Формирование информационной компетентности будущих учителей средствами инновационных технологий [Текст]: Дис. канд. пед. наук / О.Б. Зайцева. – Армавир, 2002. – 169 с.
3. Раицкая, Л.К. Информационная компетенция преподавателя иностранного языка в высшей школе: сущность, пути формирования [Текст] / Л.К. Раицкая // Лингвострановедение: методы анализа, технология обучения. Пятый межвузовский семинар по лингвострановедению: Сб. статей. В 2 ч. Ч. 1. – М.: МГИМО-Университет, 2008. – С. 142-152.
4. Семенов, А.Л. Информационные и коммуникационные технологии в общем образовании: Теория и практика [Текст] / А.Л. Семенов. – М.: ИНТ, 2006. – 326 с.



5. Сысоев, П.В. Развитие информационной компетенции специалистов в области обучения иностранному языку [Электронный ресурс] / П.В. Сысоев, М.Н.Евстигнеев // Режим доступа: <http://www.lib.tsu.ru/mminfo/021044960/04/image/04-096.pdf>. – загл. с экрана.

6. Тришина, С.В. Информационная компетентность как педагогическая категория [Электронный ресурс] / С.В. Тришина // Режим доступа: <http://www.eidos.ru/journal/2005/0910-11.htm>. – В надзаг.: Интернет-журнал «Эйдос». – загл. с экрана.

7. A.T.Kurbanova “Talabalarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirish” // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati., DSc.03/30.04.2021.Ped.82.11 raqamli – Toshkent, 2021. – b.46.

8. Sh.A.Urazmetova “Raqamli resurslarni modellashtirish asosida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish” // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati., DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli – Toshkent, 2022. – b.44.

9. Шипулина, Л.А. Формирование профессионализма будущих экономистов средствами новых информационных технологий [Текст] : Дис. канд. пед. наук / Л.А. Шипулина. – Ставрополь, 2004. – 134 с.

10. Махрова, Л.В. Реализация принципа преемственности в процессе формирования информационно-технологической компетентности будущего учителя математики [Текст]: Дис. канд. пед. наук / Л.В. Махрова. – Екатеринбург, 2005. – 189 с.

11. Завьялов, А.Н. Формирование информационной компетентности студентов в области компьютерных технологий (на примере среднего профессионального образования) [Текст]: Автореферат кандидатской диссертации / А.Н. Завьялов. – Тюмень, 2005. – 17 с.

12. Бочарова, Л.В. Формирование информационно-коммуникативной компетентности будущего учителя [Текст]: дисс. ... канд. пед. наук / Л.В. Бочарова. – Курск, 2006. – 210 с.

13. Морковина, Э.Ф. Развитие информационной компетентности студента в образовательном пространстве [Текст]: Дис. канд. пед. наук / Э.Ф. Морковина. – Оренбург, 2005. – 212 с.

14. Плотоненко, Ю.А. Личностно ориентированный подход в формировании информационной компетентности студентов вуза [Текст]: Дис. канд. пед. наук / Ю.А. Плотоненко. – Тюмень, 2009. – 164 с.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada o'quvchilarning axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik muommolarini ochib berishda “Kasblarga yo'naltirishdagi axborotlar bilan kompetensiyasi”, “Kelajak kasblarni tanlashda axborot kompetentligini rivojlantirish”, “Kasbiy sohalarga integratsiyalash maqsadlaridagi axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik muommolari” kabi tushunchalarni ilmiy tahlil qilish bilan mavzud adabiyotlarni o'rganishlar va sanab o'tilgan muammolar haqida fikrlar bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются тематические исследования литературы и перечисленные проблемы с научным анализом таких понятий, как “компетентность учащихся с информацией в профориентации”, “развитие информационной компетентности в выборе будущей профессии”, “педагогические проблемы развития информационной компетентности в целях интеграции в профессиональные сферы” при раскрытии педагогических проблем развития информационной компетентности учащихся идеи изложены.

SUMMARY

This article discusses case studies of literature and the listed problems with the scientific analysis of such concepts as “competence of students with information in career guidance”, “development of information competence in choosing a future profession”, “pedagogical problems of information competence development in order to integrate into professional spheres” when disclosing pedagogical problems of information competence development of students, the ideas are outlined.